

TO‘QIMACHILIK SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Kodirova Xurshida Ismoilovna

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

tayanch doktoranti

e-mail: xurshidakodirova877@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada to‘qimachilik korxonalarini ishlab chiqarish jarayonida samaradorlikka erishish, iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga ta’sir etuvchi asosiy omillar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar. To‘qimachilik, samaradorlik, resurs, ishlab chiqarish, investitsiyalar.

KIRISH

Bugungi tez o‘zgarayotgan bozor talabi sharoitida ishlab chiqarish samaradorligiga bir qator omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Bu esa sanoatda samaradorlikni oshirishda uning manbalariga alohida to‘xtalib o‘tishni talab etadi. Birinchi yo‘nalishda mehnat omili asosiy manba bo‘lib, uning malaka ko‘nikmasi samaradorlikni ta’minlaydi. Ikkinchi yo‘nalishda investitsiyalar, texnologiyalar transferi orqali ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish ta’minlanadi. Shu bilan birga sanoat korxonalarida samaradorlikni ta’minlash uzoq muddatli faoliyatga asoslanib, mavjud resurslardan foydalanishni yaxshilash hisoblanadi.

Ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning asosiy maqsadi, resurslarni optimallashtirish va isrofgarchilikni kamaytirishdir. Bu esa, o‘z navbatida, korxonaning ishlab chiqarish jarayonini tezlashtirish, mahsulot sifatini yaxshilash va xarajatlarni qisqartirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, innovatsion yechimlarni qo‘llash va boshqaruvning ilg‘or metodlarini ishlab chiqish to‘qimachilik korxonalarining resurslardan samarali foydalanish darajasini oshirishga imkon yaratadi. Yangi texnologiyalar va metodlar ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi va bozor talablariga moslashishini osonlashtiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida O‘zbekistonda yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil, omilli tahlil, tanlanma kuzatish, analiz va sintez, kabi usullardan foydalanilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat korxonlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi omillarning ilmiy nazariy asoslarini tadqiq etish orqali tushuntirish zarur. V.Yu.Glebov ilmiy tadqiqotlarida iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash asosiy ichki omillar ta’sir etishini ta’kidlab, ular 85 foizni, qolgan 15 foizni esa tashqi omillar hissasiga to‘g‘ri kelishini izohlagan.[1]

V.Yu.Glebov tadqiqotida ichki va tashqi omillarni umumlashtirgan holda baholagan. Muallif omillarni o‘zaro bir-biriga ta’siri yuqoriligini o‘rganib, amaliyotda

tashqi omillar samaradorlikning ichki omillariga ta'sirini kuchaytirishi yoki aksincha neytrallashi mumkinligini asoslagan.


Korxonalar faoliyatiga ichki va tashqi omillar bilan birga moddiy resurslar ta'minoti, innovatsion faoliyat va mahsulotlar sifati ham ta'sir qiladi. Jumladan, Sh.N.Zaynutdinov va R.I.Nurimbetovlar [2] ishlab chiqarish samaradorligi ichki va tashqi omillarni o'zaro bir-biriga bog'liqligini o'rganib, bunda makroiqtisodiy barqarorlik, valyuta munosabatlari, eksport salohiyatini oshirish, resurslardan samarali foydalanish, boshqarish xorijiy usullarni tatbiq etish, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni tashkil etish va diversifikatsiyalashga alohida e'tibor qaratish zarurligi asoslangan.

N.I.Rustamov sanoat korxonalarini ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlardan foydalanishni yaxshilash va ishchilar manfaatdorligi asosida «aylanma harakat modeli»ni taklif qilgan. Aylanma harakat modeli sanoat korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatida oilaviy korxonalarni tashkil etish asosida ishchi-xodimlarning daromadini oshirish va aholi turmush darajasini yaxshilash orqali samaradorlikni ta'minlashga asoslangan[3]

TAHLIL VA NATIJALAR

Ishlab chiqarishning samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo'lib o'rganish zarur (1-rasm). Jumladan, mazkur omillarni mazmun va mohiyatini qarab o'tamiz.

Ichki omillar korxonani mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlariga asoslanib, moddiy-texnik resurslar mutanosibligi, marketing siyosati, boshqaruv tizimi hamda mahsulot va xizmatlarning yangi turlarini joriy qilish, korxonada mahsulotlar sifati hamda foyda o'sishini ichki xaxiralarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarishni iqtisodiy rag'batlantirish, ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish, ishlab chiqarish texnologik jihozlari holati, ishlab chiqarishning moddiy-texnik bazasini modernizatsiyalash va qayta qurishga bog'liq holda ishlab chiqarishni samarali tashkil etishga va zamonaviy texnologiyalar va nou-xaularning qo'llanilishi – ishlab chiqarish vositalarini yangilash, innovatsion faoliyatni to'g'ri tashkil etish va yangiliklarni amaliyotga qo'llash muddatini qisqartirish asosida.



1-rasm. Ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar¹

Mahsulotlarga bozordagi talab va taklifni o'zgarishi - mahsulotlarni narxi, sotish hajmi, raqobatchilar imkoniyatlari va demografik o'zgarishlarni hisobga olgan holda iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash ham tashqi omillar tarkibiga kiradi. Tashqi omillar korxonalarni tashqi iqtisodiy aloqalari - korxonalar amal qilayotgan hududdagi iqtisodiy siyosat, o'zaro hamkorlar bilan aloqalar va investitsion faoliyat, moddiy resurslar narx darajasi xomashyo, material resurslar va butlovchi qismlar ta'minoti, narxi o'zgarishi, ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif, hududdagi ish o'rinlari va xodimlar malakasini oshirishga asoslanadi.

Fikrimizcha, sarflangan kapital mablag'lar hisobiga olingan natija, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish darajasi va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish samaradorlikni bosh omili hisoblanadi.

¹ Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi

Shuningdek, texnologiyalarni yangilash va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish to‘qimachilik korxonalarida samaradorlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi:

- IoT(Internet of Things) texnologiyalari orqali ishlab chiqarish mashinalarini real vaqt rejimida nazorat qilish va monitoring qilish mumkin. Bu texnologiya yordamida ishlab chiqarish jarayonlarining holatini kuzatib borish va resurslarni samarali taqsimlash imkoniyatini yaratadi.

- Sun‘iy intellekt va mashina o‘rganish texnologiyalari yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, xatoliklarini kamaytirish va jarayonlarni avtomatik tarzda sozlash imkoniyatlari mavjud.

- 3D bosib chiqarish va raqamli to‘qimachilik texnologiyalari yordamida materiallardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashtirish mumkin.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish asosida iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlash, innovatsiyalarni shakllantirish va ularni amaliyotga qo‘llash muddatini qisqartirish, ishlab chiqarish texnologiyalarini bozor talabiga moslashtirish, investitsiyalar samaradorligini oshirish zarur.

Ma‘lumot sifatida shuni aytib o‘tish joizki, 2025 yilda to‘qimachilik sanoatida respublikamiz bo‘yicha 2,5 mlrd dollarlik investitsiya o‘zlashtirilishi rejalashtirilmoqda.

Shundan 2,2 mlrd dollarini to‘g‘ridan- to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar tashkil qiladi.

Investitsiya dasturiga muvofiq jarayonda 192 ta loyiha amalga oshirilib, 42000 ta ish o‘rni yaratiladi. Bu esa aholi turmush tarzini yanada yaxshilanishiga olib keladi.²

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar orqali O‘zbekistonda yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari quyidagilarga erishildi. [3]

1-jadval

O‘zbekistonda yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari³

Ko‘rsatkichlar	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	Farqi (+/-) va % 2023-2018yy.	
Ip kalava (ming tonna)	427,9	528,6	614,8	789	841,6	940,3	512,4	119,8
Gazlamalar (million m2)	533,7	407,4	607,8	590,8	741,8	767,0	233,7	43,8

² “O‘z to‘qimachilik sanoat” uyushmasining rasmiy kanalidan olingan ma‘lumot

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Trikotaj mahsulotlari (million dona)	319,7	342,5	345,4	411,0	423,8	455,8	136,1	42,6
Trikotaj palotnosi (ming tonna)	60,5	54,1	97,3	75,1	102,5	105,2	44,7	73,9
Tikuv mahsulotlari (mlrd.so‘m)	2873,8	3126,8	4080,9	4679,8	5174,7	5570,0	2696,2	93,8
Paypoq mahsulotlari (million juft)	117,0	126,4	155	219,8	286,4	305,0	188,0	160,7

Demak, 2018 va 2023 yillar mobaynida deyarli barcha yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari o‘shish tendensiyasini ko‘rsatgan. Masalan, Ip-kalava 427,9 ming tonnadan 940,3 ming tonnaga o‘sgan, bu 512,4 ming tonna o‘shish va 119,8 foiz o‘shish bilan trikotaj mahsulotlari 319,7 million donadan 455,7 million donagacha o‘sgan. Ishlab chiqarish 136,1 mln.donaga oshib, 2018-2023-yillarda 42,6 foizga o‘sgan, yakuniy trikotaj palotnosi ishlab chiqarish 60,5 ming tonnadan 105,2 ming tonnaga, ya’ni 44,7 ming tonnaga o‘sgan va 2018 yildan 2023 yilgacha 73,9% ga o‘sgan. Shu bilan birga, gazlama ishlab chiqarish indeksi 533,3 mln.kv.m.ga o‘sgan va 2018 yildan 2023 yilgacha 43,8 % ga o‘sgan. Shuningdek, tikuv mahsulotlari sohasida sezilarli o‘shish kuzatildi va bu yerda ham keskin o‘shish kuzatilgan va 2018 yildan 2023 yilgacha 93,8 foizga o‘shib 2023-yilda 5570 mlrd.so‘mni tashkil etdi. Paypoq ishlab chiqarish (1-jadval) ham to‘qimachilik sohasining muhim sohasi hisoblanadi. Shunday qilib, paypoq ishlab chiqarish ko‘rsatkichi 110 million juftdan 305 mln donagacha o‘sganini ko‘rish mumkin. 2018 yildan 2023 yilgacha 160,7 foizni tashkil etgan va 2023-yilda 188 mln.juftni tashkil etgan.

Respublikamiz yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bir qatorda 2024 yilda dunyoning 77 mamalakatlariga to‘qimachilik mahsulotlarini eksport qilgan.

O‘zbekiston 2024-yilda 2897,3 mln AQSH dollari (2,9 mlrd AQSH dollari) miqdorida eksport amalga oshirgan.⁴

Shundan:

- Ip- kalava-1200,2 mln AQSH dollari (41,7%)
- Tayyor tikuv- trikotaj mahsulotlari -1177,4 mln AQSH dollari (40,9%)
- Trikotaj mato -279,2 mln AQSH dollari (9,7%)

⁴ “O‘z to‘qimachilik sanoat” uyushmasining rasmiy kanalidan olingan ma’lumot

- Gazlama mato -156,7 mln AQSH dollari (5,4%)
- Paypoq mahsulotlari - 40,7 mln AQSH dollari (1,4%)
- Gilam mahsulotlari – 25,0 mln AQSH dollar(0,9%)

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiy samaradorlikka bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi,ularni xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ichki omillar moddiy-texnik resurslar mutanosibli, foyda taqsimoti, korxonani marketing siyosati va boshqaruv tizimi hamda zamonaviy texnologiyalar va nou-xaularning qo'llanilishiga asoslansa, tashqi omillar korxonalarini tashqi iqtisodiy aloqalari,resurslar narxi,o'zaro hamkorlar bilan aloqalar, inflyatsiya darajasi, bozordagi talab va taklifni o'zgarishi va demografik o'zgarishlarga asoslanadi.Shuning uchun bu omillar o'zgarishi ta'sirini o'rganish zarur.

Shuningdek, to'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarishda foydalaniladigan xom ashyo, masalan, ip, mato va boshqa materiallarning sifati va miqdori samaradorlikka bevosita ta'sir qiladi. Xom ashyo isrofini kamaytirish va qayta ishlash texnologiyalarini joriy rtish orqali xarajatlarni qisqartirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin.

Ishlab chiqarish jarayonlarida inson resurslaridan samarali foydalanish korxonaning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu o'z navbatida, ishchi kuchining malakasi, motivatsiyasi, treninglar, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishning samarali tizimlari orqali amalga oshiriladi.

Fikrimizcha, sanoat korxonalarida mehnat resurslaridan foydalanishni baholash sanoat korxonasi faoliyati natijalarini yaxshilash bilan birga jamiyat uchun ham bir qator ijobiy natijalar beradi, jumladan:

- korxonalarda mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash,yangi ish joylarini yaratish asosida aholi bandligi ta'minlanadi va jamiyatda ishsizlar sonini kamayishi asosida ijtimoiy rivojlanish bo'ladi;
- ishchi-xodimlarni to'g'ri joylashtirilishi va salohiyatiga mos ish bilan ta'minlanishi mehnat natijalarini yaxshilaydi va mehnat bozoridagi raqobatni rivojlantiradi;
- ishchi-xodimlar tarkibiy tuzilishini yaxshilanishi mehnat mazmundorligini orttiradi va motivatsiyani ta'minlaydi
- ishchi-xodimlar mehnatidan foydalanish natijalari va o'zgarish tendensiyalari aniqlanadi va uning asosida ishchi kuchiga qo'yilayotgan talab ortadi.[5]

ADABIYOTLAR/ЛИТЕРАТУРА/REFERENCE:

1. Глебов В.Ю. Управление эффективностью промышленных предприятий на основе кооперации их деятельности: автореф. дис. ... канд. экон. наук. — М., 2012. — 21 с.
2. Зайнутдинов Ш.Н., Нурымбетов Р.И. Ресурсная база и потенциал производства Узбекистана: использование и эффективность (региональный

аспект) // Бюллетень науки и практики. — 2017. — №10. — URL: <http://www.bulletennauki.com> (дата обращения: указать дату).

3. Рустамов Н.И. Саноат тармоқларини ички имкониятларидан самарали фойдаланиш асосида ривожлантириш: автореф. дис. ... PhD. — Тошкент, 2018. — С. 7–11.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Maълумотлар асосида муаллиф ишланмаси.

5. Марифович М.М. Тўқимачилик саноат корхоналарининг иқтисодий фаолияти самарадорлигини ошириш: дис. ... PhD. — Андижон, 2023. — 38 с.